

ELEKTRON DAVLAT XARIDLARINI AMALGA
OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ramazonova Sevinch Elbek qizi

rsevinch2206@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 2-kurs B patok 1-guruh talabasi

Javoxir Eshonqulov – ilmiy rahbar

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquq kafedrasi o'qituvchisi

javoxireshonqulov0724@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda elektron davlat xaridlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Davlat xaridlarida raqobatni oshirish, oshkorali kni ta'minlash va davlat mablag'larini samarali sarflash maqsadida elektron savdo tizimlarining afzallikkari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat xaridlarini tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar tahlil etilib, amaldagi qonunchilikning bu boradagi kamchiliklari va takomillashtirish yo'naliishlari yoritilgan. Maqolada elektron xaridlar sohasidagi zamonaviy texnologiyalar, tender jarayonlarining oshkorali hamda korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Elektron davlat xaridlari, huquqiy asoslar, oshkorali, raqobat, davlat mablag'lari, tender jarayoni, korrupsiyaga qarshi kurash, qonunchilik, milliy va xalqaro me'yorlar, zamonaviy texnologiyalar, raqobatbardoshlik, davlat xaridlari monitoring, axborot xavfsizligi, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, auksion.

**ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ
ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК**

Абстрактный. В данном исследовании анализируется правовая основа электронных государственных закупок. Рассмотрены преимущества электронных торговых систем с целью повышения конкуренции при госзакупках, обеспечения прозрачности и эффективного использования государственных средств. Также проанализированы национальные и международные правовые нормы, регулирующие государственные закупки, выделены недостатки действующего законодательства в этом отношении и направления для совершенствования. В статье подчеркивается важность современных технологий в сфере электронных закупок, прозрачности тендерных процессов и борьбы с коррупцией.

Ключевые слова. Электронные государственные закупки, правовая база,

прозрачность, конкуренция, государственные средства, тендерный процесс, борьба с коррупцией, законодательство, национальные и международные нормы, современные технологии, конкурентоспособность, мониторинг государственных закупок, информационная безопасность, экономическая эффективность, цифровая трансформация, аукцион.

LEGAL BASIS OF IMPLEMENTATION OF ELECTRONIC PUBLIC PROCUREMENT

Abstract. In this research, the legal basis of electronic government procurement is analyzed. The advantages of electronic trading systems were considered in order to increase competition in public procurement, ensure transparency and efficient use of public funds. Also, the national and international legal norms regulating public procurement are analyzed, the shortcomings of the current legislation in this regard and directions for improvement are highlighted. The article emphasizes the importance of modern technologies in the field of e-procurement, the transparency of tender processes and the fight against corruption.

Key words. Electronic public procurement, legal framework, transparency, competition, public funds, tender process, fight against corruption, legislation, national and international norms, modern technologies, competitiveness, public procurement monitoring, information security, economic efficiency, digital transformation, auction.

Kirish. Davlat xaridlarining hajmini maqbul darajada ushlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunga qaramay, davlat sektorida xususiy sektorga xos bo'lgan xaridlar samaradorligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi omillar mavjud emas. Bu holat davlat xizmatining boshqa sohalariga qaraganda yuqori darajada korrupsiya xavfini yuzaga keltiruvchi omil hisoblanadi.(1) Ilgari ushbu sohada shaffoflik, elektron auksion savdolarida ro'yxatdan o'tish va ishtirok etishning bepulligi, bir necha marotaba narx taklif etish imkoniyati, adolatli raqobat, savdolar va ularning natijalarini kuzatib borish imkoniyati mavjud bo'lмаган. Elektron davlat xaridlarining vujudga kelishi barcha qonunbuzarliklarni qisman bo'lsada oldini oldi deb aytolamiz.

Davlat xaridlari konsepsiysi davlat xaridlarining samarali tizimini ta'minlash maqsadlariga erishish xalqaro amaliyotga binoan quyidagi tamoyillarni ko'rib chiqishni talab qiladi:

Barcha yetkazib beruvchilarga teng va adolatli munosabatda bo'lish;
Yetkazib beruvchilarni tanlashda raqobatbardoshlik;
Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning samarali sarflanishi;
Ochiqlik va shaffoflik. (2)

Hozirgi davrda davlat xaridlari jarayoni iqtisodiyotimizning muhim bir qismi hisoblanadi. Ular davlat byudjetining samarali ishlatalishini ta'minlaydi. Elektron davlat xaridlari bo'lsa ushbu jarayonni yanada shaffof va samarali qilishda muhim rol

o'ynaydi. Avvalo, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunlar davlat xaridlarini amalga oshirishning asosiy prinsiplarini belgilaydi. Ushbu qonunlar xarid jarayonida qatnashayotgan barcha tomonlar — davlat, tadbirkorlar va fuqarolar uchun huquq va majburiyatlarni aniq belgilaydi. Bu esa xaridlар jarayonini adolatli va shaffof qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, elektron tijorat to'g'risidagi qonunlar elektron platformalarda xaridlар amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan qonuniy asoslarni ta'minlaydi. Ushbu qonunlar, shuningdek, onlayn savdolar, raqamlı imzolar va ma'lumotlarni himoya qilish kabi muhim jihatlarni qamrab oladi. Bu holatlar davlat xaridlарini elektron shaklda o'tkazish jarayonida ishonchilikni ta'minlaydi.

Asosiy qism. Qonunchiligidizda davlat xaridlарiga ta'rif keltirilgan bo'lib, davlat xaridlari - Davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni. Elektron davlat xaridi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda davlat xaridlарini amalga oshirish shakli. (3) "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun bilan amaliyotda yangiliklar kirib keldi. Masalan, qonun xaridlarning besh tartib-taomilini belgiladi, ya'ni elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, tender, yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion davlat xaridi bo'yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etardi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot partolida zarur axborot chop etish yo'li bilan ta'minlandi. Endilikda xarid tizimida davlat buyurtmachisining ikkita kategoriysi birlashtirildi: byudjet buyurtmachilari (davlat organlari, byudjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari) hamda korporativ buyurtmachilar (davlat korxonalari, yuridik shaxslar). Yana bir yangiliklardan biri shuki, ilgari davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi. Faqat elektron auksion savdolar bo'yicha Hukumat Komissiyasi faoliyat yuritardi, xolos. Keyinchalik davlat xaridlari tizimida vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi millliy agentligi belgilandi (hozirgi kunda Moliya vazirligi). Oldin davlat xaridlарining barcha tartib-taomili uchun shartnoma summalarini ma'lum bir ekvivalentdagi AQSH dollari bilan mezonlangan bo'lsa, endi ular joriy vaqtdagi eng kam oylik ish haqiga nisbatan belgilanadigan bo'ldi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun hujjalari va qonunchilik normalariga rioya etilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjalarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari belgilab qo'yildi. Qonunchilikda belgilangan yana bir yangilik shuki, davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha yangi maxsus komissiya tashkil etilishi bo'ldi. Ushbu maxsus komissiya xaridlarning barcha turlariga taaluqli shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Ahamiyatli jihat, komissiya shikoyatlarni tomonlar ishtirokida, qisqa muddat

ichida ya’ni yeti ish kunida ko’rib chiqib, qaror chiqaradi va axborotni maxsus axborot portaliga yuklaydi.

Elektron davlat xizmatlarining vujudga kelishi korrupsiyaning oldini olish va oshkorali kni ta’minalashda alohida sezilarli rol o’ynadi desak bo’ladi. Qolaversa, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat xaridlarini ustidan nazorat qiluvchi organ etib belgilandi. Moliya vazirligi va boshqa ishtirokchilarga savdo natijalari, qonun buzilish holatlari va tahliliy ma’lumotlarni ochiq axborot manbalarda e’lon qilib borish vazifasi yuklatildi. Hisob palatasi davlat xaridlarini auditdan o’tkazishi va natijalarini har yili Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga kiritishi hamda ochiq axborot manbaalarida e’lon qilib borishi belgilandi. Maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnomalarni tuzish, davlat xaridlarini monitoringini olib borish va nazorat qilish jarayonlari tizimlashtirildi. Davlat xaridlarini tizimi yanada rivojlanishiga va sohaga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish bilan bir qatorda ochiqlik va shaffoflikni ta’minalashga qaratilgan boshqa ko’plab o’zgarishlar ko’zda tutildi. (4)

Elektron davlat xaridlarini iqtisodiyotdagagi raqobatni kuchaytiradi va byudjet xarajatlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Shu sababli, huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash va yangi texnologiyalarni qo’llash orqali biz samarali va shaffof davlat xaridlarini amalga oshirishga erishishimiz mumkin. Yuqorida sanab o’tganimdek elektron davlat xaridlarining bir qator afzallik va salbiy tomonlari mavjud. Yetkazib beruvchi va buyurtmachilarga nisbatan qulaylik tomonlarini ko’rib chiqadigan bo’lsak, elektron savdolarda ishtirok etish buyurtmachilar va yetkazib beruvchilar uchun birdek foydalidir. Jumladan, tadbirkorlar davlat buyurtmalari bilan tanishib chiqishlari va o’z takliflarini vositachilarsiz berishlari, narxlarni kuzatishlari yoki o’zlarini ishlab chiqarayotgan mahsulotni elektron do’konga joylashtirishlari mumkin. Shuningdek, davlat xaridlarining asosiy maqsadi tizimning shaffofligini ta’minalash hamda uni yanada takomillashtirish hisobiga korporativ buyurtmachilar, shu jumladan strategik ahamiyatga ega bo’lgan xo’jalik jamiyatlari va korxonalar mablag’larining maqsadli sarflanishini ta’minalash hamda samaradorligini oshirishdir.

Elektron davlat xaridlarining afzallikkilari bilan birga undagi foydalanuvchilar uchun ma’lum miqdorda xavflar ham mavjud. Masalan, bugungi kunda eng globallashayotgan muammolardan biri, shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarning xavfsizligi va dolzarbligi masalasi. Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlardan foydalangan holda qonun buzilishlari ko’p uchrayotgani hech kimga sir emas. Bundan tashqari onlayn xaridlar orqali firibgarlik holatlari, masalan, soxta tenderlar yoki xizmatlar ko’payishi ehtimoli bo’lishi mumkin. Ushbu xavflar elektron davlat xaridlarining samaradorligini kamaytirishi va ishonchni yo’qotishga olib kelishi mumkin.

Agarda qonunchiligidan ushbu soha borasida va undagi muammolarni oldini

olishga qaratilgan huquqiy asoslar yetarli bo'lsagina ushbu tizimning ravnaqi va rivojlanishi, foyda olib kelishi turgan gap. Yuqoridagi kelib chiqish ehtimoli bo'lgan xavflarga atroficha yechim beradigan bo'lsam, elektron davlat xaridlaridagi xavflarni kamaytirish uchun quyidagi yechimlarni misol qilaolamiz:

- Ma'lumotlarni shifrlash orqali ya'ni, onlayn xaridlar jarayonida shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni shifrlash orqali ularni himoya qilish mumkin.

- Kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish orqali kiberhujumlarni oldini olish uchun kuchli xavfsizlik devorlari va antivirus dasturlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

- Elektron davlat xaridlarida faoliyat yurituvchilarning malaka oshirishi. Bu orqali davlat xodimlari va foydalanuvchilar uchun onlayn tizimlardan qanday foydalanishni o'rgatuvchi dasturlar tashkil etilishi belgilanadi.

- Sertifikatlangan platformalardan foydalanish. Bunda faqat ishonchli va sertifikatlangan elektron platformalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Shu va shu kabi takomillashgan yechimlarni huquqiy asoslantirilgan holda qonunchilik hujjalaramizda mustahkamlash orqali barcha xavflarni oldini olishimiz mumkin va elektron davlat xaridlarining xavfsizligini oshirish va samaradorligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil. Davlat xaridlarini tashkil etishning xorijiy tajribalari turli mamlakatlarda samarali usullar va tizimlar orqali amalga oshiriladi. Davlat xaridlari tizimini **AQSH** misolida ko'radian bo'lsak, AQSH da ushbu tizim ochiq va raqobatbardosh tenderlar orqali olib boriladi. Elektron davlat xaridlari maxsus platformalar orqali xarid jarayonlari avtomatlashtiriladi. Ushbu tizim O'zbekistondagi tizimga o'xshash hisoblanib, bu orqali Shaffoflikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish ko'zda tutilgan. **Janubiy Koreya** tizimida bo'lsa, E-procurement tizimi jarayonni avtomatlashtiradi va ochiqlik va raqobatni ta'minlash uchun tendersiz xaridlarni yo'lga qo'yadi. **Yevropa Ittifoqi** tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash jihatini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda ham davlat xaridlar sohasidagi o'zgarishlar, o'sishlar kattagina albatta va bu borada qonunchilik hujjalaramizda ham yetarlicha ma'lumotlar bazasi mavjud va tartibga solingan. Misol uchun, "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonun (2021), "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori (2018) (5) shuningdek, davlat reysteri kabi qonunchilik asoslari mavjud. Bundan tashqari xorijiy davlat tajribalari, qonunchiliklari (BMT ning "Davlat xaridlari to'g'risidagi konvensiyasi (2011) (6), Dunyo Savdo Tashkiloti (WTO), Davlat xaridlari to'g'risida kelishuv (GPA) (7), Yevropa Ittifoqining davlat xaridlari to'g'risidagi direktivalari (2014)) ham mavjud bo'lib, ularni tahlil qilish, o'rganib chiqish orqali o'zimizning elektron davlat xaridlari tizimimizdagи xavflarni bartaraf etish, himoyasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rib, bularni o'z qonunchiligidan qo'llash orqali natijaga erishishimiz mumkin.

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasida elektron davlat xaridlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari yuqorida sanab o’tgan milliy qonunchiligidizda o‘z aksini topga shu bilan bir qatorda yana bir qancha asoslar mavjud.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni (2021 yil 22-aprel)

Ushbu qonun davlat xaridlari jarayonini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatdir. Qonunning asosiy maqsadi davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minalash, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaning oldini olishni asoslantirgan hujjat hisoblanadi. Qonunda elektron davlat xaridlari tizimini rivojlantirish, davlat xaridlarida raqobatni ta’minalash, xarid jarayonini avtomatlashtirish va ochiq qilish talab etiladi.

2. “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag’batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Qarori (2018)

Davlat xaridlarida elektron tizimlarni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlarida ishtirokini kengaytirish orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar va yoshlar bandligini oshirish, shuningdek, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va ushbu tizimda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish qonunning asosiy maqsadi hisoblanadi. (8)

3. “Elektron hukumat” to‘g‘risidagi qonunning maqsadi davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minalash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta’minalashning qo‘srimcha mexanizmlarini yaratish; ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish; o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish kabi bir qator vazifalarni qamrab olgan huquqiy asos hisoblanadi. (9)

4. Elektron davlat xaridlari tizimi (xarid.uzex.uz) O‘zbekistonda elektron davlat xaridlarining asosiy platformasi bu xarid.uzex.uz tizimidir. Ushbu platforma orqali davlat tashkilotlari tovarlar, xizmatlar sotib olishadi. Elektron platforma barcha xarid jarayonlarini onlayn rejimda kuzatib borish, arizalar va takliflarni taqdim etish, tenderlarda ishtirok etish imkonini beradi. (10)

6. “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining Qarori (11)

Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarining faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, davlat buyurtmachilari va davlat xaridlari tizimida ishtirok etadigan

tadbirkorlik subyektlarining mablag‘larini moliyaviy xavf-xatarlardan himoya qilish tizimini kuchaytirish maqsadida tuzilgan qonunchilik hujjati hisoblanadi. Yuqarida ham keltirilganidek, ushbu tizim davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, davlat xaridlaridagi korrupsiya risklarini kamaytirishga va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Elektron davlat xaridlarining huquqiy asoslari davlat mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash, shaffoflikni oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu jarayonlar O‘zbekistonning huquqiy tizimida davlat xaridlariga oid qonunlar, prezident farmonlari va qarorlari orqali tartibga solinadi. Elektron davlat xaridlari davlatning moliyaviy mas’uliyatini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda elektron davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun bir qator takliflar kiritish mumkin. Ushbu tizim davlat va biznes sektorlari o’rtasidagi o‘zaro aloqalarni soddalashtiradi, ochiqlikniga ta’minlaydi va korruksiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish. Davlat xaridlari tizimida ochiqlik va shaffoflikni oshirish, ayniqsa tender va tanlov jarayonlarini kuzatishning ochiq mexanizmlarini joriy qilish zarur. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- Onlayn kuzatish platformasi: Tender jarayonlarini real vaqtda kuzatish imkonini beruvchi platforma yaratish. Foydalanuvchilar tanlov jarayonlari, ishtirokchilar va shartnomalar haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin.
- Ijtimoiy baholash mexanizmlari: Xarid jarayonlarida ishtirokchi bo‘lgan kompaniyalarning faoliyatini baholash uchun ochiq reyting tizimini joriy qilish. Bu biznes uchun raqobatni oshiradi va korruksiyaviy risklarni kamaytiradi.
- Elektron shartnoma tizimi: Shartnomalarni elektron formatda tuzish va imzolash jarayonini to‘liq raqamlashtirish. Bu vaqt va resurslarni tejaydi hamda barcha jarayonlarni kuzatib borish imkoniyatini beradi.

2. Tadbirkorlik subyektlari uchun qulayliklar yaratish. Davlat xaridlarida ishtirok etuvchi kichik va o‘rta biznes subyektlariga ko‘proq imkoniyatlar yaratish kerak. Buning uchun:

- Ishonchli malakali kadrlar ro‘yxati: Kichik korxonalar uchun davlat xaridlari jarayonini tushuntiruvchi va ularni ishtirok etishga o‘rgatuvchi mutaxassislar ro‘yxatini tuzish. Bu yangi biznes subyektlarining tizimga kirishini yengillashtiradi.
- Imtiyozli dasturlar: Kichik biznes subyektlari uchun davlat xaridlarida ishtirok etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga maxsus kvotalar yoki imtiyozli sharoitlar yaratish.

3. Raqamlı tahdidlardan himoyalanish. Elektron davlat xaridlari tizimi xavfsizligi ham muhim omil hisoblanadi. Tizimni kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratib, quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish mumkin:

- Kiberxavfsizlikni kuchaytirish: Tizimni kiber hujumlardan himoya qilish va foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlash uchun zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish.
- Xavfsizlik audit: Har yili mustaqil tashkilotlar tomonidan tizim xavfsizligiga oid to'liq audit o'tkazib turish.

4. Tizimni yanada integratsiyalash. Davlat xaridlari tizimini boshqa davlat ma'lumot bazalari bilan bog'lash orqali ma'lumotlarning uzluksiz almashinuvi va aniq monitoring olib borish imkonini oshirish mumkin. Bu jarayonni takomillashtirish uchun:

- Soliq va bojxona tizimlari bilan integratsiya: Xarid qiluvchi kompaniyalarning soliqlari va bojxona to'lovlari bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun integratsiya qilish. Bu noqonuniy faoliyatlarning oldini olishga yordam beradi.
- Bank tizimlari bilan integratsiya: Xaridlar to'lovi va moliyaviy ko'rsatkichlarini to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borish uchun bank tizimlari bilan avtomatik bog'lanish imkoniyatini yaratish.

5. Foydalanuvchilar uchun qulay interfeyslar. Tizim interfeysi foydalanuvchilar uchun qulay va intuitiv bo'lishi kerak. Shu maqsadda:

- Mobil ilovalar: Xarid jarayonlarini mobil qurilmalar orqali boshqarish imkoniyatini beruvchi mobil ilovalarni joriy qilish. Bu foydalanuvchilarga istalgan joydan tizimga kirish imkonini beradi.
- Yordam va qo'llanma tizimi: Foydalanuvchilar uchun doimiy yordam beruvchi onlayn qo'llanmalar, videodarsliklar va savol-javob tizimlari mavjud bo'lishi kerak.

Elektron davlat xaridlari tizimidagi asos qonunchilik hujjati hisoblangan O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonunning 5-bobiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif.

Elektron davlat xaridlari tizimidagi asos qonunchilik hujjati hisoblangan O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonunning 5-bobi Elektron do'kon bobida quyidagi moddalar keltirilgan:

Joriy tahlil. 49 - modda. Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari

50 - modda. Elektron do'konda takliflarning joylashtirilishi.

51 - modda. Elektron do'konda xarid qilish tartib-taomilini o'tkazish tartibi.

Qonunning ushbu qismi elektron davlat xaridiga qaratilgan ammo buning o'zi ushbu sohada to'la-to'kis qamrab oladi deyolmaymiz. Ushbu qonunlarga qo'shimcha sifatida bu sohada rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan foydalangan holda milliy qonunchiligidan o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tavsiya etiladigan tahrir. Elektron davlat xaridlarida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarga joriy qonunchilik to’la barham beraolmaydi albatta. Bunda qonunchilikka taklif sifatida 52 va 53-moddalarda yangi normalar qo’shishimiz mumkin. Bu normala

52-modda. Elektron davlat xaridlari faoliyatining kafolati.

53-modda. Elektron do’konda xarid qiluvchi mijoz ma’lumotlarining xavfsizligi. Ushbu normaning amaliy ifodasini **shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya, foydalanuvchilarni xabardor qilish** kabi bir qancha vositalar orqali amalga oshirish mumkin va bu taklif kelgusida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan bir qancha qonunbuzarliklarni oldini olishi mumkin.

Asos. Elektron davlat xaridlari faoliyatining kafolatlari haqida yangi norma qo’shishga asos, ushbu norma orqali davlat xaridlarining samaradorligini oshirish va ishonchni ta’minalashda sezilarli ta’sir ko’rsatish imkonini mavjud. Bundan tashqari ushbu moddada elektron davlat xaridlari faoliyatining muhim kafolatlari sanab o’tiladi va ushbu kafolatlar davlat xaridlarining ochiq va samarali o’tkazilishi, korrupsiyaning oldini olish, tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va davlat xarajatlarini optimallashtirish uchun muhim hisoblanadi. 53-modda ya’ni elektron do’konlarda xarid qiluvchi mijozlarning ma’lumotlarining xavfsizligi – zamonaviy elektron tijoratning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu xavfsizlikni ta’minalash uchun turli chora-tadbirlar va texnologik yechimlar qo’llaniladi, chunki mijozlar o’zlarining shaxsiy ma’lumotlarini, to’lov rekvizitlarini va boshqa maxfiy axborotlarini elektron do’konlarga ishonib topshirishadi. Agar mijozlarning ma’lumotlari o’g’irlangan yoki buzilgan bo’lsa, elektron do’konlar bu haqida mijozlarga darhol xabar berishi kerak va bu mijozlarga shaxsiy ma’lumotlari himoyasini kuchaytirish uchun zarur choratadbirlarni ko’rish imkoniyatini beradi. Bu choralar va texnologiyalar elektron do’konlarda xarid qiluvchi mijozlar ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mijozlar ishonchli himoya qilingan tizimlarda o’zlarini xotirjam his qilib, xarid qilishda davom etishadi. Aynan bu borada elektron do’konlar mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini xavfsiz saqlashi shart. GDPR (General Data Protection Regulation) va boshqa xorijiy qonunlarga ko’ra, do’konlar mijozlardan faqat zaruriy bo’lgan ma’lumotlarni talab qilishlari va ularni uchinchi shaxslarga ruxsatsiz bermasliklari kerak. Bundan tashqari, mijozlarning ma’lumotlari maxfiylik siyosati orqali qanday maqsadlarda ishlatalishini batafsil tushuntirish lozim. Elektron do’konlarda kredit kartalari yoki to’lov ma’lumotlari kabi sezgir ma’lumotlar maxsus texnologiyalar yordamida himoyalanishi kerak. Bundan tashqari shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarni xavfsizligini avtomatlashtirish chorasi sifatida ikki faktorli autentifikatsiya tizimini olishimiz mumkin. Ikki faktorli autentifikatsiya bu foydalanuvchini tekshirish jarayonini kuchaytirish uchun ishlataladigan xavfsizlik texnologiyasi hisoblanadi. U foydalanuvchi shaxsini tasdiqlash uchun ikki xil

ma'lumot talab qiladi. Odatda, bu autentifikatsiya quyidagi ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Birinchi faktor ya'ni kirish uchun standart ma'lumot talab qilinadi. Bu ko'pincha foydalanuvchi nomi va parol bo'ladi. Ushbu ma'lumot, odatda, faqat foydalanuvchiga ma'lum bo'lgan maxfiylik sifatida qaraladi.

2. Ikkinci faktor bu qo'shimcha tasdiqlash bo'lib, bu bosqichda qo'shimcha autentifikatsiya talab qilinadi. Bu esa odatda, quyidagi variantlardan biri bo'lishi mumkin: SMS yoki email orqali yuborilgan kod, bunda foydalanuvchiga maxsus kod SMS yoki email orqali yuboriladi. Bu kod kirish jarayonini yakunlash uchun kiritiladi. Yana bir usul biometrik ma'lumotlar orqali amalga oshirish mumkin. Bu foydalanuvchining barmoq izi, yuz tanish yoki ko'z qirindagi o'xshashlikka asoslangan tekshiruvlar ishlatalishi mumkin.

Ikki faktorli autentifikatsiyaning afzalliklari shundan iboratki, ushbu xorijiy tajribalar orqali xavfsizlikni oshirilishiga erishish mumkin (agar parol o'g'irlangan bo'lsa ham faqat parolni bilish orqali hisobga kirish mumkin emas), oson integratsiyaga ham erishiladi ya'ni boshqa ko'plab xizmatlar ikki faktorli autentifikatsiyani qo'llab quvvatlaydi va bu nisbatan oson sozlanadi.

Ikki faktorli autentifikatsiya ko'p xizmatlar odatda uchun majburiy yoki tavsiya etilgan xavfsizlik chorasi hisoblanadi va foydalanuvchilarни onlayn muhitda yanada yaxshi himoyalash uchun keng qo'llaniladi. Shifrlash esa ma'lumotlarni shifrlangan holda saqlash va faqat ruxsat etilgan shaxslargina unga kirish imkoniga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Mana shu kabi normalarning qonunchilikka kiritilishi, yetarlicha himoya choralari, sohadagi qonunbuzarliklarga nisbatan javobgarlikning mavjudligi, soha bo'yicha qonunchilik hujjalarning yetarliligi elektron davlat xaridlarining mukammal ravishda rivojlanishiga olib keladi deb aytaolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonda Davlat Xaridlarining Huquqiy asoslari Q.Xusanov (2022)
2. "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonun (2021 yil 22 –aprel) O'RQ 684
3. Davlat xaridlarini tartibga solishning huquqiy asoslari (Shahlo Muhammedova)
4. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari Uchqun O'roqov, Y.Javohir (2022)
5. "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori (2018)
6. BMT ning "Davlat xaridlari to'g'risidagi konvensiyasi (2011)
7. Davlat xaridlari to'g'risida kelishuv (GPA)
8. "Elektron hukumat" to'g'risidagi Qonun
9. Elektron davlat xaridlarini tizimi. <https://xarid.uzex.uz/home>

10. "Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining Qarori
11. Essential Cyber Security AI
12. Yevropa Ittifoqining davlat xaridlari to'g'risidagi direktivalari (2014).
13. Jennifer E. McCarthy (Spring, 2002). NOTE. Public Contract Law Journal, 31, 513. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn%3acontentItem%3a4685-7D50-00DB-5295-00000-00&context=1516831&identityprofileid=CJQVWW63400>.
14. "The impact of dynamic purchasing systems in the electronic public procurement processes" article. <https://doi.org/10.1016/j.procs.2011.01.051>
15. У. Урков. Давлат харидлари тизими: кеча ва бугун. «Бозор, пул ва кредит» журнали, 8-сон, 2018 й.
16. O'roqov U.Yu. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022. 200b.
17. Bartle, Korosek; umuman. (2003), "Davlat xaridlari va shartnomalar bo'yicha sharh", "Davlat xaridlari" jurnal; 2003; 3, 2; ABI/INFORM To'liq, bet. 192
18. Eshonqulov, Javoxir. "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO'LIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52. 7.
19. Javokhir Eshonkulov "Legal Foundations for the Application of Artificial Intelligence Technologies in the Sports Industry" American Journal of Education and Evaluation Studies Том 1, №.7, 2024/10/4, 240-247